

INGLIZ TILIDAN TARJIMA QILINGAN ASARNI TAHLIL QILISH METODIKASI

Abduakimova Sabina Abdukaxar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti

O‘zbek tili ta’limi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima haqida dastlabki fikrlar, tarjima qilish usullari. Tarjimaning lingvistik masalalari. Tarjima qilish jarayonida talab qilinadigan qoidalar. Tarjima ilmiy-nazariy o‘ganish ob’yekti. Unda tahlil va uyg‘unlashtirish jarayon, matnda nima aks etganiga e’tibor qaratish. Asarlar tarjimasining tahlili. Ingliz tilidan bevosita tarjima qilishning o‘ziga xos grammatik qoidalari. Umuman olganda tarjima nazariyasi va muommolari, mamlakatimiz va xorijiy tarjima maktablari hamda bugungi jarayoni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarjima usullari, sinxron tarjima, ilmiy-amaliy jarayon, ijtimoiy-estetik qirralar, asliy til, asliy matn.

AN ANALYSIS OF A WORK DIRECTLY TRANSLATED FROM ENGLISH IN TERMS OF TRANSLATION

Annotation: Methods of translation in this article, methods of translation. Linguistic issues of translation. Using demand in the translation process. Translation is an object of scientific and theoretical study. In it, the process of analysis and harmonization, focusing on what is reflected in the text. Specific grammatical methods of analytical translation from the language of works.

Keywords: translation methods, simultaneous translation, scientific-practical process, socio-aesthetic aspects, original language, original text.

Dunyo xalqlari bilan manaviy muloqotni ta'minlovchi muhim vosita bu tarjima hisoblanadi. Zamonlar o'tishi bilan tarjimaga bo'lgan talablar yangilana borsada, ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmasdan qoladi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga va manaviy saviyasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi..Xullas, to XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan.Tarjima jarayoni, ta'bir joiz bo'lsa, ikki qanotga ega. Birinchisi, jahon tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilish. Ikkinchisi, o'zbek tilidan jahon tillariga tarjimalarni ro'yobga chiqarishdir. "Ikkinchi qanot" bo'yicha o'tgan davr mobaynida o'quvchilarga jahon adabiyotidan turli namunalar taqdim etilib kelinayotganini ta'kidlash joiz. Bu sohada "Jahon adabiyoti" jurnali faoliyati diqqatga sazovordir. Umuman, yutuqlar haqida yana gapirish mumkin. Adabiy aloqalar, aslida, juda keng tushuncha. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishga qiziqish ancha ortdi. Hukumatimiz professional va yuqori malakali tarjimonlar tayyorlashga katta ahamiyat bermoqda. "Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi..." Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari haqida *Amerika va butun dunyo adabiyotida o'z o'rniga ega, asarlari bilan millionlab o'quvchilarini topgan Ernest Xemingueyning mashhur asari "Chol va dengiz" 1952-yil 1-sentabrda ilk marta nashr qilingan edi.* Ibrohim G'ofurov o'zbek tiliga tarjima qilgan. Asarda adib inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, insoniyatning hamisha kurashuvchanligini ham tasvirlaydi. Shunday kurash oldida borayotgan o'quvchi beixtiyor asardagi muvaffaqiyatsizlikdan og'rinmaydi, balki insonning oldinga bo'lgan ishonchi uni ruhlantirib boraveradiAsar tahliliga keladigan bo'lsak. Kitobning birinchi jumlasiyoq ("Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to'rt kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo'q") kishini o'ziga tortadi. Bu so'zlar sodda va tuzilish jihatdan oddiy mustaqil birikma bilan qo'shilgan ikkita mustaqil va yaxshi ifodalangan gapni tashkil etadi. Bu Xeminguey adabiy uslubini tavsiflovchi umumiy

xususiyatlardir. Adibning boshqa asarlarida soʻzlarni tejash, tajribani bevosita yetkazish uchun ishlatilgan boʻlsa ham, bu asarda Xemingueyning mahorati shu qadar mustahkamlanganki, nasrning koʻp qismi bir darajada boʻsh boʻlib, boshqasida maʼno bor; yaʼni jumlar haqiqat bilan oʻziga xos aloqani yoʻqotishga moyildir, lekin shu bilan birga ular sheʼriyat effektiga juda oʻxshash, umumiy va ramziy xarakterga ega boʻladi. *Umuman olganda tarjima deganda bir tildan ikkinchi tilga oʻgirilgan matn nazarda tutiladi Tarjima muloqotning oʻziga xos turi - tillararo muloqotdir. Tarjimaning maqsadi manba tilidagi matnni maqsadli tildagi matnga aylantirishdir.* Demak, tarjima amaliyotini yanada jonlantirish, tarjima nazariyasini zamonaviy dunyo ilmi darajasiga koʻtarishga barchamiz maʼsulmiz.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. Tarjima Nazariyasi. I.Gʻafurov, O.Moʻminov, N.Qambarov (2012)
2. Tarjima nazariyasi fan sifatida. *Jahon adabiyoti*” jurnali, 2013–4
3. Ernes Xeminguey Chol va dengiz Qissa Ibrohim GʻOFUROV tarjimasi Toshkent «Yosh gvardiya» nashriyoti 1986

